



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
ADLIYA VAZIRLIGIDA
DAVLAT RO'YXATIDAN O'TKAZILDI
RO'YXAT RAQAMI: 3336-3
2025 - yil 21 - Iyul

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MARKAZIY BANKI BOSHQARUVINING QARORI

Tijorat banklarida buxgalteriya hisobining hisobvaraqlar rejasiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida

O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida"gi, 2025-yil 7-fevraldagi O'RQ-1025-son "Korporativ munosabatlarning huquqiy asoslari yanada takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi, 2025-yil 11-fevraldagi O'RQ-1026-son "Mikromoliyalashtirish faoliyati takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish to'g'risida"gi va 2025-yil 17-apreldagi O'RQ-1058-son "Tadbirkorlik subyektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimi takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonunlari hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 27-yanvardagi PF-11-son "Uy-joy qurilishi sohasini yanada rivojlantirish, turar va noturar joy obyektlarini ulush kiritish asosida qurish jarayonini tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoniga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvi qaror qiladi:

1. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2021-yil 18-noyabrdagi 20/4-son qarori (ro'yxat raqami 3336, 2021-yil 26-noyabr) (Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 26.11.2021-y., 10/21/3336/1101-son) bilan tasdiqlangan Tijorat banklarida buxgalteriya hisobining hisobvaraqlar rejasiga ilovaga muvofiq o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilsin.

2. Mazkur qaror rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

O'zbekiston Respublikasi
Markaziy banki Raisi
2025-yil 16-iyun
12/10-son



ISHMETOV TIMUR
AMINDJANOVICH

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2025-yil

16-iyun 12/10-son qaroriga

ILOVA

**Tijorat banklarida buxgalteriya hisobining hisobvaraqlar rejasiga
kiritilayotgan o'zgartirish va qo'shimchalar**

1. Muqaddimadagi "tijorat banklarida" degan so'zlar "tijorat banklarida, shu jumladan mikromoliya banklarida" degan so'zlar bilan almashtirilsin.

2. 2-bobda:

1) 10723, 10725, 10823, 10825 va 15923 balans hisobvaraqlarining nomidagi "Tijorat banklarining" degan so'zlar "Banklarning" degan so'z bilan almashtirilsin;

2) 11811 balans hisobvarag'ining nomidagi "davlat korxonalari, tashkilotlari va muassasalaridan" degan so'zlar "davlat ishtirokidagi korxona va davlat muassasalaridan" degan so'zlar bilan almashtirilsin;

3) 12502, 14902, 21612 va 22012 balans hisobvaraqlarining nomi "kam ta'minlangan" degan so'zlardan keyin "hamda kambag'al" degan so'zlar bilan to'ldirilsin;

4) 12700, 12701, 12705, 12709, 12799, 15100, 15101, 15105, 15199, 15607, 22314, 42200, 42201, 42205, 42209, 44400, 44401, 44405 va 45107 balans hisobvaraqlarining nomidagi "Davlat korxonalari, tashkilotlari va muassasalariga" degan so'zlar "Davlat ishtirokidagi korxona va davlat muassasalariga" degan so'zlar bilan almashtirilsin;

5) 12800, 12801, 12802, 12803, 12805, 12809, 12899, 14400, 14401, 14402, 14403, 14405 va 14499 balans hisobvaraqlarining nomidagi "Tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi" degan so'zlar "Tadbirkorlikni rivojlantirish kompaniyasi" aksiyadorlik jamiyati" degan so'zlar bilan almashtirilsin;

6) 15827 balans hisobvarag'ining nomidagi "Tijorat banklari" degan so'zlar "Banklar" degan so'z bilan almashtirilsin;

7) 20210, 20410, 20610, 50111, 50611 va 51111 balans hisobvaraqlarining nomidagi “Davlat korxonalari, tashkilotlari va muassasalarining” degan soʻzlar “Davlat ishtirokidagi korxona va davlat muassasalarining” degan soʻzlar bilan almashtirilsin;

8) 20896 balans hisobvaragʻining nomidagi “Markaziy bankning” degan soʻzlar “Markaziy bankka” degan soʻzlar bilan almashtirilsin;

9) 22314 va 54314 balans hisobvaraqlarining nomidagi “davlat korxonalari, tashkilotlari va muassasalariga” degan soʻzlar “davlat ishtirokidagi korxona va davlat muassasalariga” degan soʻzlar bilan almashtirilsin;

10) “22620 Korporativ bank kartalari boʻyicha majburiyatlar” balans hisobvaragʻidan keyin quyidagi mazmundagi 22621 balans hisobvaragʻi bilan toʻldirilsin:

“22621 Oʻzini oʻzi band qilgan shaxslarning bank kartalari boʻyicha majburiyatlari”;

11) “22648 Mijozlarning “yashil energiya” loyihalarini moliyalashtirish boʻyicha mablagʻlari” balans hisobvaragʻidan keyin quyidagi mazmundagi 22650 balans hisobvaragʻi bilan toʻldirilsin:

“22650 Mijozlarning pul mablagʻlarini deponentlash (eskrou) hisobvaragʻidagi mablagʻlari”;

12) 45011 balans hisobvaragʻining nomidagi “Davlat korxonalari, tashkilotlari va muassasalaridan” degan soʻzlar “Davlat ishtirokidagi korxona va davlat muassasalaridan” degan soʻzlar bilan almashtirilsin.

3. 3-bobda:

1) 10101 balans hisobvaragʻining taʼrifidagi “tijorat banklaridan” degan soʻzlar “banklardan” degan soʻz bilan almashtirilsin;

2) 10723, 10823 va 15923 balans hisobvaraqlarida:

nomidagi “Tijorat banklarining” degan soʻzlar “Banklarning” degan soʻz bilan almashtirilsin;

ta'rifdagi "tijorat banklarining" degan so'zlar "banklarning" degan so'z bilan almashtirilsin;

3) 10725 balans hisobvarag'ining nomi va ta'rifi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

"10725 Banklarning obligatsiyalari va boshqa qarz qimmatli qog'ozlari

Hisobvaraqlarning ta'rifi: narxlarning qisqa muddatli tebranishlari natijasida foyda chiqarish maqsadida xarid qilingan yoki bank tomonidan biror-bir boshqa usul bilan qimmatli qog'ozlar sifatida belgilangan, haqqoniy qiymatining o'zgarishlari foyda va zararlar to'g'risidagi hisobotda aks ettiriladigan banklarning ulushli qimmatli qog'ozlari hisobi olib boriladi.

Hisobvaraqlarning debetida xarid qilingan va/yoki Markaziy bankning normativ-huquqiy hujjatlariga muvofiq qayta tasniflangan, tegishli hisobvaraqlardan mazkur hisobvaraqlarga o'tkazilgan banklarning ulushli qimmatli qog'ozlarining xarid qiymati (xarid qilish xarajatlarini chegirgan holda) aks ettiriladi.

Hisobvaraqlarning kreditida chiqib ketgan va/yoki Markaziy bankning normativ-huquqiy hujjatlariga muvofiq qayta tasniflangan, tegishli hisobvaraqlarga o'tkazilgan qimmatli qog'ozlarni hisobdan chiqarish summasi aks ettiriladi.

Tahliliy hisob banklar tomonidan chiqarilgan ulushli qimmatli qog'ozlarning turlari bo'yicha, shuningdek emitentlar bo'yicha alohida shaxsiy hisobvaraqlarda olib boriladi.";

4) 10825 balans hisobvarag'ining nomi va ta'rifi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

"10825 Banklarning ulushli qimmatli qog'ozlari

Hisobvaraqlarning ta'rifi: banklarning boshqa umumlashgan daromad orqali haqqoniy qiymatda baholanadigan qarz qimmatli qog'ozlari hisobi olib boriladi.

Hisobvaraqlarning debetida banklarning xarid qilinishi bilan bog'liq barcha xarajatlarni hisobga olgan holdagi xarid qilingan ulushli qimmatli qog'ozlarining xarid qiymati, shuningdek banklarning Markaziy bankning normativ-huquqiy hujjatlariga muvofiq qayta tasniflangan, tegishli hisobvaraqlardan mazkur hisobvaraqlarga o'tkazilgan qimmatli qog'ozlari qiymati aks ettiriladi.

Hisobvaraqlarning kreditida chiqib ketgan va/yoki Markaziy bankning normativ-huquqiy hujjatlariga muvofiq qayta tasniflangan, tegishli hisobvaraqlarga

o'tkazilgan ulushli qimmatli qog'ozlarning hisobdan chiqarilishi summasi aks ettiriladi.

Tahliliy hisob banklar tomonidan chiqarilgan ulushli qimmatli qog'ozlarning turlari bo'yicha, shuningdek emitentlar bo'yicha alohida shaxsiy hisobvaraqlarda olib boriladi.”;

5) 23202 balans hisobvaraqlarining ta'rifidagi “tijorat banklari” degan so'zlar “banklar” degan so'z bilan almashtirilsin;

6) 11811 balans hisobvarag'ining nomidagi “davlat korxonalari, tashkilotlari va muassasalaridan” degan so'zlar “davlat ishtirokidagi korxona va davlat muassasalaridan” degan so'zlar bilan almashtirilsin;

7) 12502, 14902, 21612 va 22012 balans hisobvaraqlarining nomi va ta'rifi “kam ta'minlangan” degan so'zlardan keyin “hamda kambag'al” degan so'zlar bilan to'ldirilsin;

8) 12700, 15100, 15101, 15105, 15607, 42200, 42201, 42205, 42209, 44400, 44401, 44405 va 45107 balans hisobvaraqlarining nomidagi “Davlat korxonalari, tashkilotlari va muassasalariga” degan so'zlar “Davlat ishtirokidagi korxona va davlat muassasalariga” degan so'zlar bilan almashtirilsin;

9) 12701, 12705, 12709, 12799 va 15199 balans hisobvaraqlarida:
nomidagi “Davlat korxonalari, tashkilotlari va muassasalariga” degan so'zlar “Davlat ishtirokidagi korxona va davlat muassasalariga” degan so'zlar bilan almashtirilsin;

ta'rifdagi “davlat korxonalari, aksiyadorlik jamiyatlari, tashkilot va muassasalariga” degan so'zlar “davlat ishtirokidagi korxona va davlat muassasalariga” degan so'zlar bilan almashtirilsin;

10) 12800 va 14400 balans hisobvaraqlarining nomidagi “Tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi” degan so'zlar “Tadbirkorlikni rivojlantirish kompaniyasi” aksiyadorlik jamiyati” degan so'zlar bilan almashtirilsin;

11) 12801, 12802, 12803, 12805, 12809, 12899, 14401, 14402, 14403, 14405 va 14499 balans hisobvaraqlarining nomidagi va ta'rifidagi “Tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi” degan so'zlar “Tadbirkorlikni rivojlantirish kompaniyasi” aksiyadorlik jamiyati” degan so'zlar bilan almashtirilsin;

12) 13101, 13105, 13109, 15501, 15599 va 20208 balans hisobvaraqlarning ta'rifidan “yoki qo'shimcha mas'uliyatli” degan so'zlar chiqarib tashlansin;

13) 13199 va 15505 balans hisobvaraqlarining ta’rifidagi “yoki qo’shimcha mas’uliyatli” degan soʻzlar “va” degan soʻz bilan almashtirilsin;

14) 15101 balans hisobvaragʻida:

nomidagi “Davlat korxonalari, tashkilotlari va muassasalariga” degan soʻzlar “Davlat ishtirokidagi korxona va davlat muassasalariga” degan soʻzlar bilan almashtirilsin;

ta’rifdagi “davlat korxona, davlat aksiyadorlik jamiyatlari, tashkilot va muassasalariga” degan soʻzlar “davlat ishtirokidagi korxona va davlat muassasalariga” degan soʻzlar bilan almashtirilsin;

15) 15827 balans hisobvaragʻida:

nomidagi “Tijorat banklari” degan soʻzlar “Banklar” degan soʻz bilan almashtirilsin;

ta’rifdagi “tijorat banklari” degan soʻzlar “banklar” degan soʻz bilan almashtirilsin;

16) 19907 va 19909 balans hisobvaraqlarining ta’rifidagi “har bir shartnoma va/yoki har bir xoʻjalik subyekti boʻyicha alohida shaxsiy hisobvaraqlarda” degan soʻzlar “bankning ichki hisob siyosatidan kelib chiqqan holda” degan soʻzlar bilan almashtirilsin;

17) 20202 balans hisobvaragʻining ta’rifidagi “tijorat banklarining” degan soʻzlar “banklarning” degan soʻz bilan almashtirilsin;

18) 20210 balans hisobvaragʻida:

nomidagi “Davlat korxonalari, tashkilotlari va muassasalarining” degan soʻzlar “Davlat ishtirokidagi korxona va davlat muassasalarining” degan soʻzlar bilan almashtirilsin;

ta’rifda:

“davlat aksiyadorlik jamiyatlari, korxonalari, tashkilotlari va muassasalarining” degan soʻzlar “davlat ishtirokidagi korxona va davlat muassasalarining” degan soʻzlar bilan almashtirilsin;

“davlat korxonalari, tashkilotlari va muassasalarining” degan soʻzlar “davlat ishtirokidagi korxona va davlat muassasalarining” degan soʻzlar bilan almashtirilsin;

s) 20410, 20610, 50111, 50611 va 51111 balans hisobvaraqlarining nomidagi “Davlat korxonalari, tashkilotlari va muassasalarining” degan soʻzlar “Davlat ishtirokidagi korxona va davlat muassasalarining” degan soʻzlar bilan almashtirilsin;

20) 20802 balans hisobvarag'ining ta'rifidagi "tijorat banklarida" degan so'zlar "banklarda" degan so'z bilan almashtirilsin;

21) 20896 balans hisobvarag'ining nomidagi "Markaziy bankning" degan so'zlar "Markaziy bankka" degan so'zlar bilan almashtirilsin;

22) 21002 balans hisobvarag'ining ta'rifidagi "tijorat bankda" degan so'zlar "bankda" degan so'z bilan almashtirilsin;

23) 21008 balans hisobvarag'ining ta'rifidagi "tijorat bankining" degan so'zlar "bankning" degan so'z bilan almashtirilsin;

24) 22314 va 54314 balans hisobvaraqlarining nomidagi "davlat korxonalari, tashkilotlari va muassasalariga" degan so'zlar "davlat ishtirokidagi korxona va davlat muassasalariga" degan so'zlar bilan almashtirilsin;

25) "22620 Korporativ bank kartalari bo'yicha majburiyatlar" balans hisobvarag'idan keyin quyidagi mazmundagi 22621 balans hisobvarag'ining nomi va ta'rifi bilan to'ldirilsin:

"22621 O'zini o'zi band qilgan shaxslarning bank kartalari bo'yicha majburiyatlari

Hisobvaraqlarning ta'rifi: o'zini o'zi band qilgan shaxslarning bank kartalari bo'yicha hisob-kitoblar uchun mo'ljallangan mablag'lari hisobi olib boriladi.

Hisobvaraqlarning kreditida bank kartasiga kelib tushgan mablag'lar summasi aks ettiriladi.

Hisobvaraqlarning debetida bank kartasidan hisobdan chiqarilgan mablag'lar summasi aks ettiriladi.”;

26) "22648 Mijozlarning "yashil energiya" loyihalarini moliyalashtirish bo'yicha mablag'lari" balans hisobvarag'idan keyin quyidagi mazmundagi 22650 balans hisobvarag'ining nomi va ta'rifi bilan to'ldirilsin:

"22650 Mijozlarning pul mablag'larini deponentlash (eskrou) hisobvarag'idagi mablag'lari

Hisobvaraqlarning ta'rifi: mijozlarning pul mablag'larini deponentlash (eskrou) hisobvarag'i bo'yicha mablag'lari hisobi yuritiladi.

Hisobvaraqlarning kreditida mijozlarning deponentlangan pul mablag'lari summasi aks ettiriladi.

Hisobvaraqlarning debetida hisobdan chiqarilgan deponentlangan pul mablag'lari summasi aks ettiriladi.

Tahliliy hisob har bir mijoz yoki shartnoma bo'yicha alohida shaxsiy hisobvaraqlarda olib boriladi.”.

27) 23202 balans hisobvarag'ining ta'rifidagi "tijorat banklari" degan so'zlar "bank" degan so'z bilan almashtirilsin;

28) 29848 balans hisobvarag'ining ta'rifi "kam ta'minlangan" degan so'zlardan keyin "hamda kambag'al" degan so'zlar bilan to'ldirilsin;

29) 45011 balans hisobvarag'ining nomidagi "Davlat korxonalari, tashkilotlari va muassasalaridan" degan so'zlar "Davlat ishtirokidagi korxona va davlat muassasalaridan" degan so'zlar bilan almashtirilsin;

30) 90966 balans hisobvarag'ining ta'rifidagi "96321" raqami "96331" raqami bilan almashtirilsin;

31) 94505 balans hisobvarag'ining ta'rifi "boshqa aktivlari hisobi olib boriladi." degan so'zlardan keyin "Ushbu hisobvaraq uchun 96381 balansdan tashqari hisobvaraq kontr-hisobvaraq hisoblanadi." degan so'zlar bilan to'ldirilsin.

4. Qoidalarda:

1) nomidagi "Tijorat banklari" degan so'zlar "Banklar" degan so'z bilan almashtirilsin;

2) 26, 30, 57, 65, 66 va 82-bandlarning matnidagi "tijorat banki" degan so'zlar "bank" degan so'z bilan almashtirilsin;

3) 74-banddagi "Tijorat bankining" va "tijorat banki" degan so'zlar tegishli ravishda "Bankning" va "bank" degan so'zlar bilan almashtirilsin;

4) 83-bandning birinchi xatboshisidagi "Tijorat banklari" degan so'zlar "Banklar" degan so'z bilan almashtirilsin;

5) 84-bandda:

birinchi xatboshidagi "tijorat banklaridan" va "tijorat bankiga" degan so'zlar tegishli ravishda "banklardan" va "bankka" degan so'zlar bilan almashtirilsin;

to'rtinchi xatboshidagi "tijorat bankiga" degan so'zlar "bankka" degan so'z bilan almashtirilsin;

6) 85-bandning birinchi xatboshisidagi "tijorat banklariga" degan so'zlar "banklarga" degan so'z bilan almashtirilsin;

7) 86-bandning birinchi xatboshisidagi "Tijorat banklariga" degan so'zlar "Banklarga" degan so'z bilan almashtirilsin;

8) 87-bandning birinchi xatboshisidagi "Tijorat bankiga" degan so'zlar "Bankka" degan so'z bilan almashtirilsin.